

DORIVOR ROZMARIN O'SIMLIGINI QALAMCHALARDAN KO'PAYTIRISH VA SHIFOBAXSHLIK XUSUSIYATLARI

Haydarova Mahxura Mo'sinovna – FarDU akademik litseyi o'qituvchisi
To'xtaboyeva Sayora Abdulboqiyevna – FarDU akademik litseyi o'qituvchisi
Ergasheva Mahfuza Soliyevna – FarDU akademik litseyi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada rozmarin o'simligini yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish orqali dorivor o'simliklar yetishtiriladigan plantatsiyalarga yosh nihollarini yetkazib berish hamda o'simlik xom ashyolardan samarali foydalanish yo'llari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: dorivor, rozmarin, efir moy, shifobaxshlik, qalamcha.

Аннотация: В статье описаны способы доставки молодых саженцев на плантации, где выращиваются лекарственные растения, путем совершенствования технологии выращивания растений розмарина и эффективного использования растительного сырья.

Ключевые слова: лекарственный, розмарин, эфирное масло, целебное, ручка.

Abstract: This article describes ways to deliver young seedlings to plantations where medicinal plants are grown by improving the technology of rosemary plant cultivation and effective use of plant raw materials.

Key words: medicinal, rosemary, essential oil, healing, pen.

Dorivor rozmarin (*Rosmarium Officinale* L.)-Labguldoshlar oilasi rozmarin (*Rosmarium*) turkumiga mansub o'simlik bo'lib, Vatani O'rta yer dengizi atrofidagi davlatlardir. Yevropa va Afrika davlatlarida qadimdan ekib o'stiriladi. O'simlikni madaniylashtirilganiga 2 ming yildan ortiqroq bo'lib, hozirda Ispaniya, Fransiya, Jazoir, Tunis, Yugoslaviya va Hindistonda asosiy efir – moyli o'simlik sifatida katta maydonlarda ekib o'stirib foydalanilmoqda.

O'simlik Rossiyaga 1816 – yilda Qrimdagi Nikitin botanika bog'iga keltirib ekilganligi ma'lum. Endilikda bu o'simlikni O'zbekistonda ham ekib o'stirish va undan foydalanish mumkinligi aniqlangan. Rozmarin asosan oxakli tuproqlarda juda yaxshi o'sadi. Bo'yi 50-100 sm gacha yetadigan doim yashil buta. Poyasi tik o'suvchi, shoxlangan, yosh novdalari to'rt qirrali. Ildiz tizimi yaxshi taraqqiy etib, tuproqqa 3-4 m gacha kirib boradi. Barglarining uzunligi 4 sm, eni 0,3 sm, cho'zinchoq qalam shaklda, bandsiz yoki qisqa bandi bilan poyada qarama-qarshi joylashgan. Gullari ikki labli mayda, och binafsha rangda. Urug'i tuxumsimon, jigarrang, usti silliq, uzunligi 2-2,5 mm, eni 1-1,5 mm. Mevasi dumaloq-silliq, jigarrang yong'oq, 1000 dona urug' vazni 1,2-1,4 g keladi.

Rozmarin novdalarining yuqori qismida, gulida, bargida efir moyi saqlaydi. Efir moyi tarkibida α – pinen, sineol, borneol, L –kamfora, kariofillen, bornilasetat, limonen, smola va boshqa moddalar bor. Rozmarin kuchli hushbo'y va yoqimli hidga ega. Bargi, guli, yosh novdalari quruq holda baliq mahsulotlariga ishlov berishda qo'llaniladi. U oz miqdorda qovurilgan go'sht, qovurilgan tovuq, qiyma go'sht, qo'ziqorinli salatlar, sabzavotli qaynatma va boshqa taomlarga ta'm beruvchi ziravor hisoblanadi 1-rasm.

O'simlikni plantatsiyasini tashkil etish uchun birinchi o'rinda, ko'chat tayyorlash zarur. Bizning sharoitda o'simlik urug' bermaydi. Shu sababli vegetativ usulda qalamchalaridan ko'paytiriladi. Yetilmagan (hali yog'ochlashmagan) qalamchalarga ishlov berish uchun past, chala yetilganlari uchun o'rta, yog'ochlangan qalamchalar uchun esa yuqori darajadagi o'stiruvchi moddalar aralashmasi ishlatiladi.



1-rasm. Rozmarin marfalogiyasi

Shuningdek, qalamcha tayyorlashda geteroauksindan foydalanish ildiz otishini 10-15 % ga oshiradi. Oz miqdorda margansovka eritmasi yordamida ishlov berish ham ildiz otishni tezlashtirib, tuproqdagi chirish jarayonini pasaytiradi.

Qalamchalar iyul-avgust oylarida poyasi yog'ochlangan novdalardan 15-20 sm uzunlikda kesiladi. Nam matoga o'ralgan qalamchalar 25-30 tadan qilib bog'lanadi va boylamlar suvli idishchaga yoki har qanaqa shisha, sirlangan, zanglamaydigan po'lat idishga joylanadi. Eritma qatlami 3-3,5 sm dan ko'p va 1,5-2 sm dan kam bo'lmasligi kerak.

Qalamchalarga kunning ikkinchi yarimidan keyingina ishlov berish maqsadga muvofiq, tuni bilan qoldirildi, ertalab ichimlik suvida yaxshilab yuviladi so'ngra ekildi. Ildiz ortishi uchun qalamchalarni issiqxonada maxsus tayèrlangan substratlarga qadaladi. Issiqxonada chirigan go'ng (pori) bilan o'g'itladik (1 m² ga 2 chelak miqdorida) va yaxshilab chopilgan, tekislangan er ustiga 15 sm qalinlikda darè qumi to'shalgan tuprokga qalamchalar 5-10 sm chukurlikda qiyalatib ekiladi. Kuniga 3 marta, har 4-5 soatda sug'orilib turildi. Qalamcha ekilganidan 20-30 kun o'tgach, ildiz otish nuqtalari bo'rtishi namoèn bo'ladi. Bu vaqtga kelib kundalik sug'orish miqdori 2 martagacha kamaytiriladi (ertalab va kechqurun). Oktyabr oyida sug'orish miqdori 1

martagacha kamaytiriladi. So'ngra haftasiga 1 marta ko'chat tayèr bo'lganga qadar sug'orildi. Qalamchalar issiqxonada erta bahorda tayèr ko'chat bo'lib etiladi (ildiz otishi 80-90 % ni tashkil etdi). Tayèr bo'lgan ko'chatlar tuplar oraliq'i 40 sm masofada ko'chatlar ekiladi va zaxlatib sug'oriladi. Rozmarin o'simligi asosan unumdor bo'lgan o'zimiz ekadigan yerlar yani sug'oriladigan yerlarda ekish maqsadga muvofiq hisoblanadi. O'simlik yiliga 8-9 martagacha sug'oriladi, har 2-3 sug'orishdan so'ng kultivatsiyadan keyin begona o'tlardan tozalanadi, o'simlikning o'sishi va rivojlanishi talab darajasida bo'ladi.

Rozmarin o'simligi bizni hududda asosan unumdor bo'lgan o'zimiz ekadigan yerlar yani sug'oriladigan yerlarda ekish maqsadga muvofiq hisoblanadi. O'simlik yiliga 8-9 martagacha sug'oriladi, har 2-3 sug'orishdan so'ng kultivatsiya qilinadi.

Rozmarinning o'ziga xos xususiyatlari

Rozmarin o'simligi dorivor vosita sifatida qadim zamonlardan beri foydalanib kelingan. Uning foydali xususiyatlari to'g'risida har bir xalqda turlicha qarashlar bo'lgan: Rimliklar uni yaralarni davolashda, Xitoyliklar esa uning yordamida bosh og'rig'idan xalos bo'lganlar.

Hozirgi paytga kelib olimlarimiz rozmarin bilan bog'liq ilmiy ishlar olib borishib quyidagi xususiyatlarini o'rganishgan. Rozmarin o'zida juda ko'p miqdordagi efir moylarini, A va C guruh vitaminlarini, kaliy, kalsiy va natriyni saqlaydi. O'simlikning yer ustki barglari va yosh poyalaridan tayyorlangan damlama va spirtidagi eritmalari (nastoykasi) bosh og'rig'ida oshqozon – ichak kasalliklari, shamollashda, ayollarda uchraydigan ayrim xastaliklarni davolashda ijobiy naf beradi. Shu bilan birga organizmni tetiklashtirib, quvvat bag'ishlash xususiyatiga ham ega. Barglarida o'ziga xos hid va ta'm berganligi sababli rozmarin go'shtli mahsulotlarni pishirishda va ularni uzoq vaqt saqlashda hamda ziravor sifatida ham qo'llaniladi. Konditer mahsulotlariga qo'shib tayyorlanganda o'ziga xos ta'm va maza beradi. O'simlik qish mavsumida ham barglarini to'kmasligi va o'ziga xos hid tarqatib turishini hisobga olgan xolda u bog' va xiyobonlar, hovli va dam olish maskanlarida manzarali buta sifatida ham o'stiriladi.

O'simlikning shifobaxshlik xususiyatlari

revmatizm, radikulit va fibromialgiyada yordam beradi;

oshqozon buzilganida ham yordam beradi;

spazmda yordam beradi;

qon bosimi oshishini oldini oladi;

qorin va muskullar og'rig'ida yordam beradi;

mikrob va zamburug'larga qarshi kurashadi;

antioksidant vositasini bajarib, miyadagi qarilik belgilari paydo

bo'lishini sustlashtiradi.

O'simlikning salbiy jixatlari

Rozmarin ziravor sifatida kam miqdorda ovqatlarga, choy va limonadlarga solishga yaxshi bo'lib, me'yoridan ortiq iste'mol qilinganda esa, ovqat hazm qilish muammolarining kelib chiqishiga, bosh og'rig'iga va qon bosimining ko'tarilishiga sababchi bo'lishi mumkin.

Quyidagi insonlar esa undan juda kam miqdorda iste'mol qilishlari kerak:

homilador ayollar;

kron kasalligi, oshqozon yarasi va qorin sanchishi kasalliklaridan aziyat chekuvchi insonlarga;

gipertoniya kasalligiga duchor bo'lgan kishilarga salbiy tasir ko'rsatadi.

Rozmarin o'simligini ko'p miqdori ham zarar hisoblanadi. Rozmarin o'simligi asosan parfumeriya va tibbiyotda keng qo'llaniladi, bundan tashqari oziq-ovqat sanoatida ziravor sifatida ham foydalaniladi.

Dorivor rozmarinning ham o'ziga xos foydali va salbiy jihatlari ham albatda mavjud. Bu esa o'zimizga ya'ni undan qanday foydalanishimizga bog'liq.

O'simlikdan foydalanishda o'ziga xos foydali va salbiy jihatlarini o'rganish maqsadga muvofiqdir. O'simlikni foydali xossalarni bilish bilan biz uchun ayni kerak bo'lgan foydali jihatlaridan samarali foydalanishimiz mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish lozim, hozirgi kunda tabiiy dorilarga bo'lgan talab juda ham ortmoqda chunki, har qanday kasallikni su'niy vositalardan emas, balki tabiiy vositalar bilan davolash samarali xisoblanadi. Shu boisdan rozmarin o'simligini ko'paytirishda uning ko'chatlaridan foydalanishni yanada oshirish hamda keng maydonlarda o'simlik plantatsiyalarni tashkil etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komilov, R., Haydarov, M., & Usmonov, A. (2022). FЎЗА НАВЛАРИНИНГ КЎЧАТ ҚАЛИНЛИГИГА БОҒЛИҚ ҲОЛДА ЧИЛПИШ ЎТКАЗИШ МУДДАТЛАРИНИ ЧИГИТ МОЙДОРЛИГИГА ТАЪСИРИ. *Science and innovation*, 1(D6), 371-375.
2. Mashrabovich, H. M., & Baratjon o'g'li, S. F. (2022). MELISSA OFFICINALIS L O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA YETISHTIRISH USULI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(18), 18-20.
3. Isagaliev, M., Abakumov, E., Turdaliev, A., Obidov, M., Khaydarov, M., Abdukhakimova, K., ... & Musaev, I. (2022). Capparis spinosa L. Cenopopulation and Biogeochemistry in South Uzbekistan. *Plants*, 11(13), 1628.
4. Haydarov, M., Yusupova, Z., Sayramov, F., & Rahmonova, O. (2022). Lamiaceae oila vakillarining biz bilgan va bilmagan dorivorlik xususiyatlari. *Science and innovation*, 1(D7), 89-94.

5. Хайдаров, М. М. (2022, November). ЛАБГУЛДОШЛАР ОИЛА ВАКИЛЛАРИНИНГ ЭФИР МОЙИГА БОЙ БЎЛГАН БАЗИ ТУРЛАРИНИНГ МОРФОЛОГИЯСИ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 8, pp. 16-20).
6. Haydarov, M., Sayramov, B., Rahmonova, O., & Eshnorova, J. (2022). TARKIBIDA MONOSIKLIK MONOTERPENLAR BO'LGAN EFIR MOYLAR VA DORIVOR O'SIMLIKLAR. *Science and innovation*, 1(A7), 337-343.
7. Turdaliyev, A., Haydarov, M., Siddiqova, G., & Sodiqova, M. (2022). DORIVOR VALERIANA O'SIMLIGINI YETISHTIRISH AGROTEKXNOLOGIYASI. *Science and innovation*, 1(D8), 26-30.
8. Turdaliyev, A., Haydarov, M., Ne'Matova, D., & Aliyeva, M. (2022). VALERIANA OFFICINALIS LO O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI. *Science and innovation*, 1(D7), 468-472.
9. Haydarov, M., & Sayramov, F. (2022). ЛАБГУЛДОШЛАР ОИЛА ВАКИЛЛАРИНИНГ ТИББИЁТДА ҚЎЛЛАНИЛИШИ ВА КИМЁВИЙ ТАРКИБИ. *Science and innovation*, 1(D8), 262-270.
10. Haydarov, M., & Usmonov, A. (2022). DORIVOR VALERIANA OFFICINALIS L. O'SIMLIGINING BOTANIK TAVSIFI VA TARQALISH AREALLARI. *Science and innovation*, 1(D8), 303-308.
11. Хайдаров, М. М. (2022). МОРФОЛОГИЯ НЕКОТОРЫХ ВИДОВ СЕМЕЙСТВА LAMIACEAE, БОГАТЫХ ЭФИРНЫМ МАСЛОМ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(12), 834-838.
12. Haydarov, M., Mamanazarov, B., Xamroqulov, D., & Nasriddinova, D. (2022). BIOMORPHOLOGY OF VALERIANA OFFICINALIS L. *Science and Innovation*, 1(8), 393-399.
13. Mashrabovich, N. M., & Ogli, O. K. A. I. (2023). MAHALLIY TOPINAMBURNING (*Helianthus tuberosus*) DORIVORLIK XUSUSIYATLARI. *Science and innovation*, 2(Special Issue 6), 159-162.
14. Комилов, Р. М., Рахимов, М. А., & Хайдаров, М. М. (2023). АНДИЖОН ВИЛОЯТИНИНГ ОС ТУСЛИ БЎЗ ТУПРОҚЛАРИ ШАРОИТИДА АНДИЖОН-35 ВА ЎЗПИТИ-201 ҒЎЗА НАВЛАРИНИ КЎЧАТ ҚАЛИНЛИГИГА БОҒЛИҚ ҲОЛДА ЧИЛПИШ ЎТКАЗИШНИНГ ПАХТА ҲОСИЛИГА ВА ЧИГИТ МОЙДОРЛИГИГА ТАЪСИРИ. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).
15. Комилов, Р., Рахимов, М., & Хайдаров, М. (2023). АНДИЖОН ВИЛОЯТИНИНГ ОС ТУСЛИ БЎЗ ТУПРОҚЛАРИ ШАРОИТИДА АНДИЖОН-35 ВА ЎЗПИТИ-201 ҒЎЗА НАВЛАРИ БЎЙИЧА КЎЧАТ

- ҚАЛИНЛИГИГА БОҒЛИҚ ҲОЛДА ЧИЛПИШНИНГ ПАХТА ҲОСИЛИГА ТАЪСИРИ. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(17).
16. Xaydarov, M., & Sayramov, F. (2022). MEDICINAL USE AND CHEMICAL COMPOSITION OF MEMBERS OF THE LABGULODASH FAMILY. *Science and Innovation*, 1(8), 262-270.
17. Turdaliyev, A., Haydarov, M., Ne'Matova, D., & Aliyeva, M. (2022). VALERIANA OFFICINALIS LO 'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI. *Science and innovation*, 1(D7), 468-472.
18. Davronov, Q., Haydarov, M., Haydarova, M., & Saminov, A. (2023). OCHIQ VA HIMOYALANGAN MAYDONLARDA SABZAVOT YETISHTIRISHNING ILG 'OR TECHNOLOGIYASI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 8(1), 19-26.
19. Давронов, Қ., Ҳайдаров, М., & Саминов, А. (2023). КУЗГИ БУҒДОЙ ПАРВАРИШИДА СУЮҚ АЗОТЛИ ЎҒИТЛАР БИЛАН ЎСИМЛИКНИ БАРГИДАН ОЗИҚЛАНТИРИШНИНГ ДОН СИФАТИГА ТАЪСИРИ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 8(1), 11-18.
20. Давронов, Қ., Ҳайдаров, М., & Саминов, А. (2023). СУЮҚ АЗОТ-КАЛЬЦИЙЛИ ЎҒИТИНИ ҒЎЗАНИ БАРГИДАН ОЗИҚЛАНТИРИШДА ҚЎЛЛАШНИ САМАРАСИ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 8(1), 3-10.